



SERBIYA RESPUBLIKASI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi 4-kurs talabasi
Toshmirzayev Mahmud

Annotatsiya: ushbu maqola orqali biz Serbiya davlati aholisi dini talimi ijtimoiy holatlari iqtisodi va turli urf odatlari haqda tanishib olamiz. Bu davlat aholisining madaniy merosi va ulkan qadryatlari bilan bevosita aloqadorlik harakatlarini amalga oshiramiz.

Kalit so'zlar: Serbiya, poytax, iqtisod, tarixi, ijtimoiy holati, hududi, aholisi, siyosati, shaxarlari

Kirish

SERBIYA (Србија, Sradije) Serbiya Respublikasi — Serbiya va Chernogoriya tarkibiga kiruvchi respublika. Dunay havzasida joylashgan. Maydoni 88,4 ming km². Aholisi 9,8 mln. kishi (1997). Poytaxti — Belgrad sh. 2 muxtor o'lka — Voyevodina hamda Kosova va Metoxiyani o'z ichiga oladi. Ma'muriy jihatdan S. tumanlarga, tumanlar jamoalarga bo'linadi. Serb (65,4%), alban (16,5%), venger (3,3%) va boshqa xalqlar yashaydi. Rasmiy til — serb tili. Aholi xristian (pravoslav va katolik), islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiladi. S.ning o'z konstitutsiyasi, parlamenti (skupshchina) va hukumati bor. Tabiati. S.ning shim.g'arbiy qismini O'rta Dunay tekisligining jan. chekkasi egallaydi. Uning yonida FrushkaGora tog massivi (bal. 539 m gacha) joylashgan. Sava daryosi va Dunayning kengayib oqadigan qismi o'ng sohili bo'ylab Serb tog' tizmalari va massivlari hamda Sharqiy Serb tog'lari o'tadi. Chekka jan.g'arbda Kosovo maydoni va Metoxiyaning bepoyon pasttekisligi yastangan. S.ning eng baland nuqtasi (2764 m) Albaniya chegarasidagi Korabi tog' tizmasida joylashgan. Iqlimi mo'tadil, kontinental. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 0—G, iyulniki 18—23°. Yillik yog'in 500—800 mm (tog'larda 1000 mm gacha). Asosiy daryolari — Dunay, Sava, Tisa, Morava, Drina. Tog'lar oralig'idagi vodiylar va payettekisliklarda mevali bog'lar barpo etilgan. S. hududining 1/4 qismiga yaqini o'rmon, asosan, buk daraxtzorlaridan iborat. Kosovo muxtor o'lkasida qo'rg'oshinrux rudalari, Moravaning o'ng sohilida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, Sharqiy Serb tog'larida mis, Voyevodinada neft va gaz konlari bor. Hayvonot dunyosi xilmaxil: tekisliklarda kemiruvchi, quyon, tog'larda bug'u, yovvoyi echki, to'ng'iz, silovsin va boshqa bor. Turli qushlar, jumladan, yovvoyi va



suvda suzuvchi qushlar, toshli qoyalarda kaltakesak, ilonlar uchraydi. Dengizda baliq turi ko‘p.

Tarixi. S hududida odam paleolit davridan yashay boshlagan. Jez davrida illiriy, frakiy, keyinroq kelt qabilalari yashagan. Bolqon yarim orol rimliklar qo‘liga o‘tishi (mil. av. 229 y. — mil. 106 y.) mahalliy qabilalarning romanlashuviga olib keldi. 6—7-asrlarda bu yerga slavyanlar kelib o‘rnashdi. 10-asr o‘rtalarida davlat — Serb knyazligi paydo bo‘ddi. 1217-yil qirollikka aylandi. Stefan Dushan idora qilgan yillar (1331—55)da yirik SerbiyaGretsiya davlati barpo etildi. 1389-yil Kosovo maydonidagi jangda turk qo‘shinlari serblarni mag‘lubiyatga uchratgach, S.ni o‘ziga qaram qilib oldi, 1459-yil esa Turkiya tarkibiga qo‘shib olindi. 18-asr oxiridagi RossiyaTurkiya urushlari serb xalqining milliy ozodlik harakatiga turtki bo‘ldi. 1804—13 yillarda birinchi serb qo‘zg‘oloni serb davlatini qayta tiklash yo‘lidagi harakatning boshlanishi bo‘ldi. 1815-yil ikkinchi serb qo‘zg‘oloni ozodlik kurashini davom ettirish uchun negiz yaratdi. Turkiya sultonining 1830 va 1833-yillardagi farmonlariga ko‘ra, S. Turkiya panohi ostidagi o‘zini o‘zi idora qiladigan muxtor knyazlik deb e‘lon qilindi. S. 1878-yil Berlin kongressining qaroriga binoan, to‘la mustaqillikka erishdi va o‘z hududini birmuncha kengaytirib oddi (1882-yildan qirollik). 1903-yil Serbiya sotsialdemokratik partiyasi va yagona kasaba uyushma tashkiloti tuzildi. S. 1912—1913-yillardagi Bolqon urushida qatnashdi. 1915—1918-yillarda Avstriya-Vengriya qo‘shinlari tomonidan okkupatsiya qilib turildi. 1918-yil sobiq Avstriya-Vengriya tarkibidagi jan. slavyan yerlarining ko‘p qismi S. bilan birga Serblar, xorvatlar va slovenlar qirolligi (1929-yildan Yugoslaviya)ga birlashdi. 1941-yil S.ni Germaniya bosib oddi. Nemislar general M.Nedich boshchiligida Serb hukumati deb atalgan hukumat tuzdilar. 1944-yil oktabrda S. ozod qilindi. 1945-yil noyabrdan S. Yugoslaviya tarkibidagi olti respublikaning biri bo‘ldi. 1991-yilda Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, undan Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya chiqib ketgach, Serbiya bilan Chernogoriya Yugoslaviya Ittifoq Respublikasini tuzdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi . Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Cohen, Mark Nathan (1977) *The Food Crisis in Prehistory: Overpopulation and the Origins of Agriculture*, New Haven and London: Yale University Press.